

H.B.XANIKOVNING “BUXORO XONLIGI TAVSIFI” ASARINING TARIXIY MANBAA SIFATIDA AHAMIYATLILIGI

Muxammadiyeva Asal Adxam qizi

(QarDU)

E-mail: muxammadiyevaasal@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada N.Xanikovning qo‘lida Juvayniy, Xondamir, Xoqoniy kabi Sharq allomalarining noyob merosi ham saqlanganligi, Xiva harbiy ekspeditsiyasi N.Xanikovning xizmat faoliyatida katta ahamiyatga ega bo‘ldiganligi, Turkistonning turli shaharu-qishloqlari, yo‘llari, ko‘priklari, quduqlari, sardobalari haqida boy ma‘lumotlar mavjudligi H.B.Xanikovning “Buxoro xonligi tavsifi” asarida o‘zbek xalqi etnografiyasi, XIX asrning 40-yillarida xonlikdagi 19 ta shahar ro‘yxati keltirilganligi, lekin ba‘zi yirik shaharlar Kitob, Shahrisabz, Termiz, Denov va boshqalar ushbu ro‘yxatda keltirilmaganligi, Buxoro shahrining yer maydoni 1739 tanob bo‘lib, 13 ta qabriston joylashgan. Shaharni Shohrud arig‘i orqali suv bilan ta‘minlaydi. 12 ta ko‘prik, 63 ta hovuz mavjudligi, Buxoroda pul birliklari, uzumning 12, shaftolining 3, o‘rikning 3, olmaning 8, nokning 2, tutning 2, qovoqning 16, oshqovoqning 9 xil navlari haqida ham ma‘lumotlarga oid ma‘lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: N.V. Xanikov, Rossiya, Sankt-Peterburg, Perovski, Xiva, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kavkazorti, Xuroson, Eron, Parij, etnografiya.

XIX asr 40-yillarida Buxoroda bo‘lgan taniqli rus sharqshunosi va diplomati N.V. Xanikov (1819-1878) merosi haqida V.V.Bartold [1], M.M.Solovyev [2], V.A.Krachkovskaya [3], O.V.Maslova [4], N.A.Xalifin, YE.F.Rassadina [5], I.G‘aniyev, K.Mustanov [6], B.R.Xoliqova [7] kabi mualliflar asarlarida, shuningdek, tarixshunos B.V.Lunin tomonidan tuzilgan majmuada ham ma‘lumotlar mavjud [8]. Ayniqsa, I.G‘aniyev, K.Mustanovlarning “Turkiston va N.V. Xanikov” (Buxoro, 1995) risolasi sermazmunligi, dalillarga boyligi va zamonaviy nuqtai nazari bo‘yicha yozilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Taniqli rus sharqshunosi va diplomati Nikolay Vladimirovich Xanikov 1819 yil 24 oktabrda Kaluga gubernyasining Lixvinsk uezdida tavallud topgan. Peterburgdagi Sarskoye Seloda 1836 yilda maktabni tugatib, Sharq tillari - turk, arab va fors tillarini o‘rgangan.

U 1838 yilda Poltava Chernigov, Xarkov general-gubernatorligining maxsus topshiriqlarini bajarish chinovnigi qilib tayinlangan va bu lavozimda 4 oy ishlagandan soʻng, Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy[9] ixtiyoriga yuborilgan.

Keyingi yillarda N.Xanikovning Sharq mamlakatlaridagi amaliy va ilmiy faoliyati, bevosita general-mayor V.A.Perovskiy shaxsi bilan bogʻliq boʻlgan. Nikolay I 1839 yil 12 mart kuni Tashqi ishlar vaziri K.V.Nesselrod, Harbiy vazir A.I.Chernishov va general V.A.Perovskiydan iborat boʻlgan Maxsus Qoʻmitaning rus asirlarini ozod qilish va rus savdo karvonlarining erkin harakatini taʼminlash maqsadida Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni olib borishni ilgari surgan majlis bayonnomasini tasdiqlagandan soʻng, Xivaga qarshi harbiy harakatlarga tayyorgarlik boshlanib ketdi. 1839 yil noyabr oyi oʻrtalarida V.A.Perovskiy rahbarligidagi harbiy otryad Xivaga qarshi yurishga chiqdi, Harbiy ekspeditsiya tarixshunosi etib, N.Xanikov tayinlandi. Uning zimmasiga ekspeditsiya davomida sodir boʻlgan barcha hodisalar va voqealarni yozib borish vazifasi yuklandi.

Xiva harbiy ekspeditsiyasi N.Xanikovning xizmat faoliyatida katta ahamiyatga ega boʻldi. U oʻzining mehnatsevarligi, intizomi, chidamliligi va oʻz vazifasiga sidqidildan yondoshganligi uchun V.A.Perovskiy nazariga tushdi. 1840 yili N.Xanikovning Buxoroga elchilik missiyasi bilan borishiga ham aynan V.A.Perovskiy sababchi boʻldi.

N.Xanikov josuslik niyatidagi K.F.Butenev ekspeditsiyasi tarkibida (rahbar oʻrinbosari) Buxoroda boʻlib va mazkur ekspeditsiya 1841 yil avgustdan to 1842 yil aprelgacha Buxoroda faoliyat koʻrsatgan.

U keyinchalik Kavkaz orti oʻlkasi Bosh boshqarmasi diplomatik kanselyariyasi xodimi (1845-1850), Rus Geografiya jamiyati Kavkaz boʻlimi rahbari (1850-1854), Tabriz (Eron)da bosh konsul (1854-1857), Xuroson ilmiy ekspeditsiyasi rahbari (1858-1859) lavozimlarida ishlagan.

1860 yildan umrining oxirlarigacha Fransiya poytaxti Parij va uning atroflarida yashagan. 1878 yil 13 noyabrda vafot etib, Per-Lashez qabristonida dafn etilgan [9]. N.Xanikov Turkiston, Buxoro, Eron, Xuroson, Kavkaz xalklari tarixi, etnografiyasi va geografiyasiga oid jami 110 dan ziyod asarlar yozgan, shundan 13 tasi bevosita Turkiston bilan bogʻliqdir. Eng asosiy asari “Buxoro xonligining tavsifi” (Sankt-Peterburg, 1843, 279 b) boʻlib, 1845 yilda ingliz tiliga ham tarjima qilingan[10].

Shuni taʼkidlash joizki, N.Xanikov asarlarining aksariyati fransuz tilida bitilgan boʻlib, u ancha vaqtlar oʻtgandan soʻng rus tiliga tarjima qilingan.

U “Buxoro xonligi tavsifi” kitobida Turkistonning turli shaharu-qishloqlari, yoʻllari, koʻpriklari, quduqlari, sardobalari haqida boy maʼlumotlar mavjud. Ushbu salmoqli asar muallifning bevosita oʻz koʻzi bilan koʻrgan-bilganlariga asoslangan, har

bir voqea va hodisa aniqlik bilan ixcham bayon etilgan. Shuningdek, kitobga Buxoro xonligi xaritasi, Samarqand shahrining geografik tarxi ham ilova qilingan.

Ushbu asarda XIX asrning 40-yillarida Buxoroda tabobatning ahvolini ham yoritgan. Shuningdek, XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibini o'rgangan dastlabki tadqiqotchilardan biri ham N.A. Xanikov hisoblanadi. U o'z asarida o'zbeklar tarkibidagi ko'plab urug'lar, ularning tarqalishi va soni haqida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Ushbu asarda o'zbeklarning urug'lari haqida mahalliy muallif tomonidan yozilgan "Nasabnomayi o'zbakiya" nomli qo'lyozmaga tayaanib, 97 ta o'zbek urug'lari ro'yxati keltirib o'tiladi. Muallif Buxoro amirligi hududida bu urug'larning 28 tasini uchratganligi va ularning tarqalgan joylarini aniq ko'rsatib bergan. N.Xanikovning asari o'zbek xalqining etnik tarkibi va tarixini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, asardan xonlik hududida yashagan tojiklar, arablar, forslar, yahudiylar, lo'lilar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar kabi xalqlar etnik tarixiga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan. Ko'rinib turibdiki, ushbu asarda xonlikdagi xalqlar etnik tarixi va etnomadaniyati tavsifi alohida maxsus tadqiqotni talab etadi, albatta.

Asarda XIX asrning 40-yillarida xonlikdagi 19 ta shahar ro'yxati keltirilgan. Lekin ba'zi yirik shaharlar Kitob, Shahrisabz, Termiz, Denov va boshqalar ushbu ro'yxatda keltirilmagan. Asarda ko'rsatilishicha, Buxoro shahrining yer maydoni 1739 tanob bo'lib, 13 ta qabriston joylashgan. Shaharni Shohrud arig'i orqali suv bilan ta'minlaydi. 12 ta ko'prik, 63 ta hovuz mavjud. Arkning maydoni 22 tanob bo'lib, 360 ta masjid, 103 madrasa faoliyat ko'rsatadi, 1840 yilda madrasada 9000 nafardan 10000 nafargacha talaba tahsil olgan.

Buxoroda 38 ta karvonsaroydan 24 tasi g'ishtdan, 14 tasi yog'ochdan qurilgan, 18ta hammom ishlagan. Aholisi 60000-70000 nafar bo'lib, bir tanobga 38 nafar kishi to'g'ri keladi.

Asarda Buxoroda pul birliklari, uzumning 12, shaftolining 3, o'rikning 3, olmaning 8, nokning 2, tutning 2, qovoqning 16, oshqovoqning 9 xil navlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

N.Xanikovning yozishicha, Buxoro haqida to'liq bilim olish uchun 13 tadan ko'proq kitobni o'qib chiqish shart. U yozadi: "Xonlikdagi madrasalarning soni uncha ma'lum emas, taxminan 180-200 ta bo'lishi mumkin (aslida 360 ta edi), ularda 15000-16000 nafar talaba o'qiydi, boshlang'ich maktabda 150000 yoki 160000 nafar o'quvchi bo'lib, bu amirlikdagi aholining 1/16 qismini tashkil etadi[10. B.223].

U Buxoro amirligi qo'shini haqida yozib, sarbozlarning soni 40000 nafar bo'lib, 1/3 to'liq qurolsiz, qolganlari esa qurollangan. Ular qilich, xanjar, to'plardan, pilta miltiq, qalqonga ega, to'pponcha kam uchraydi. Tepkili o'qotar qurollar 1000 nafar askarda va ba'zi bir amaldorda mavjud [10. B.181].

N.Xanikov 1841 yil sentabrda Samarqand shahrining Buxoro darvozasidan chiqib, Jom dashti yo‘li orqali Qarshiga yo‘l olgan. Yo‘l taassurotlarini batafsil yoritib, hududda o‘zbek saroylari yashaganligini ta’kidlagan. 18-20 ta quduq mavjudligi, jumladan, Shurquduq, Qorategin quduqlarini tilga olgan.

Ekspeditsiya 9 sentabrda Qo‘ng‘irtog‘dan o‘tib, Qarshi shahriga kirgan. Muallifning yozishicha, shaharda 3 ta madrasa (G‘oli, Abdullaxon, Bikey), 1 ta namozgoh mavjud. Tamaki yetishtirgan, alacha to‘qish rivojlangan. Shanba, dushanba kunlari kichik bozorlari bo‘ladi. 3 ta karvonsaroy joylashgan. Abdullaxon toshko‘prik qurdirgan. Shaharning janubida Ramazon, Qurbon hayitlarida, jumalarda namoz o‘qiladigan Namozgoh joylashgan.

N.Xanikov Qarshi-Buxoro yo‘lidagi Sayyod (Pudina), Karsan (Koson), Buzrug sardoba, Xo‘ja Muborak, Qaqir, Bo‘zachi kabi karvonsaroylar mavjudligini ham ta’kidlab o‘tgan [10. B.108-110]. N.Xanikov “Samarqand” (“Guvoh hikoyasi”) nomli maxsus maqola ham yozgan (1868). Maqola 1869 yilda Parijda fransuz tilida “Parij Geografiya jamiyati”ning “Russkiy invalid” jurnali 1869 yil mart-aprel oylari sonlarida bosilib chiqqan[10]. Demakki, N.Xanikov Samarqand shahri, Amir Temur va Temuriylar tarixini ham chuqur bilgan. Uning shaxsiy kutubxonasida Qazviniyning “Koinotning tuzilishi” (Kosmografiya), Rashiddinning “Umumiy tarix”, Zayn al-Obidning sayohatnomasi, Imom Termiziy, Abulg‘oziy asarlari, Buxoro amiri Nasrulloxon davri tarixiga oid nodir namunalari, Alisher Navoiyning bir necha asarlari ham mavjud bo‘lgan.

Shuningdek, N.Xanikovning qo‘lida Juvayniy, Xondamir, Xoqoniy kabi Sharq allomalarining noyob merosi ham saqlangan. Unda Buxoro va Qo‘qon xonliklari tangalari, nodir zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar ham saqlangan.

Hattoki, mazkur kolleksiya 1875 yilda Parij shahrida o‘tkazilgan Xalqaro Kongress ko‘rgazmasiga qo‘yilgan. N.Xanikovning mazkur ko‘rgazmaning komissari lavozimiga tayinlanganligi ham bejiz emas, albatta. Rossiya ko‘rgazmasi N.Xanikov taqdim etgan Xiva zargarlik ashyolari tufayli kongressda g‘olib deb topilgan. Va rus olimlari mukofotga sazovor bo‘lishgan [6. B.25].

N.Xanikovning asari o‘zining qiymati, mazmuni, undagi materiallarning bebaholigi va haqqoniyligi hamda har bir masalaga nisbatan muallifning shaxsiy fikri va xulosasining mavjudligi bilan nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarning bu xislatlari va uning ahamiyati to‘g‘risida o‘sha davrdayoq o‘z davrining buyuk mutaxassislari o‘zlarining fikrlarini bildirishgan. Jumladan, 1886 yili O‘rta Osiyo bo‘yicha yirik mutaxassis, mashhur geolog va fan tarixi bo‘yicha tan olingan katta olim I.V. Mushketov mazkur kitob haqida shunday fikr bildirgan. “Ushbu asar Buxoro haqida mavjud bo‘lgan barcha yangi ma’lumotlarni o‘ziga mujassamlashtira olgan favqulotda o‘ta muhim va hozirga qadar hisoblangan asardir[5]”.

H.Xanikovning “Buxoro xonligi tavsifi” asariga jahon miqyosida tan olingan yirik olim akademik V.V. Bartold, quyidagicha baho bergan edi: “O‘shandan buyon (1841 yildan) ko‘pgina rus tadqiqotchilari Buxoro xonligini Xanikovga nisbatan juda qulay sharoitlarda ko‘rish imkoniyatiga egadir. Shunga qaramasdan, uning kitobi shu paytgacha qilingan eng yaxshi tavsif bo‘lib qoladi” [1].

Xullas, rus sharqshunosi va diplomati N.V.Xanikovning merosini xolisona va tanqidiy tarzda yanada chuqur o‘rganish, “Buxoro xonligi tavsifi” asarini o‘zbekchaga tarjima qilib, nashr ettirish lozim. Chunki mazkur asar XIX asr 40-yillarida Buxoro xonligi tarixi va etnografiyasi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri hisoblanib, hozirgacha o‘z qiymatini aslo yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России. –Л., 1925. – С.43.
2. Соловьев М.М. Экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. – СПб., 1936.
3. Крачковская В.А. Из архивного наследия Ханыкова и Дорна // Эпиграфика Востока IV, АН СССР. –М. –Л., 1951. – С.30.
4. Маслова О.В. Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. – Материалы к истории изучения Средней Азии. Часть I. 1715-1856. –Т., 1955. – С.53.
5. Халфин Н. А., Рассадина Е. Ф. Н.В. Хаников — востоковед и дипломат. – М.:Наука, 1977. – С. 22-25.
6. G‘aniyev I., Mustanov K. Turkiston va N. V. Xanikov. – Buxoro, 1995. – 27 b.
7. Xoliqova R.E. N.Xanikov va uning “Buxoro xonligi tavsifi” asari. – O‘zMU xabarlari. – Т., 2014, 1-son. – В.27-30.
8. История Узбекистана в источниках и Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20-80-е годы XIX в.). Сост. Б.В.Лунин. – Т., 1990.
9. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства –СПб., Тип. Императорский Академик Наук, 1843. – 279 с.
10. Ханыков Н.В. Самарканд (Рассказы очевидца). // Русский инвалид, 1868, – №161.
11. Хаников Н.В. Заметки по этнографии Персии / Пер. С франс., – Москва, 1977.